UYUSHMAGAN YOSHLAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK ISH

Sariboyev N.A.,GDPI o‘qituvchisi
E-mail : sariboyevnurali5@gmail.com
Qudratova N., Yaxshilikova S.F.,GDPI talabasi

Annotasiya: ushbu maqola uyushmagan yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish hamda ushbu ishlarni joriy etish jarayonidagi dolzarb masalalari, ijtimoiy pedagogik ishlarning samaradorligini oshirish chora -tadbirlari haqida.

Tayanch so‘zlar: uyushmagan yoshlar, ijtimoiy pedagogik ish, ta’lim, innovatsion texnologiyalar, innovatsiya, raqamli, dolzarb,

Абстрактный: в статье рассматривается социально-педагогическая работа с неорганизованной молодежью, актуальные вопросы в процессе ее реализации, а также меры по повышению эффективности социально-педагогической. работы.

Ключевые слова: неорганизованная молодежь, социально-педагогическая работа, образование, инновационные технологии, инновации, цифровой, актуальный.

Abstract: this article is about socio-pedagogical work with unorganized youth, current issues in the process of implementing this work, and measures to increase the effectiveness of social pedagogical work.

Keywords: unorganized youth, social pedagogical work, education, innovative technologies, innovation, digital, current.

«Uyushmagan yoshlar» tushunchasi haqida so‘z borar ekan, ushbu ibora «uyushmagan» va «yoshlar» so‘zlari birikmasidan tashkil topgan. «Uyushmagan» so‘zining o‘zagi «uyushiq» bo‘lib, unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida «uyushgan, jipslashgan, ahil», unga ma’nodosh bo‘lgan «uyushma» so‘ziga esa «bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi» mazmunida izoh berilgan. Demak, mantiqan olib qaraganda, «uyushmagan» so‘zi «uyushiq» yoki «uyushma» so‘zlarining aksi, ya’ni antonimi bo‘lib, «jipslashmagan, ahil bo‘lmagan, muayyan bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashmagan» ma’nolarini anglatadi. Shu o‘rinda rus olimi D.M. Kafarovaning fikriga qo‘shilgan holda aytish kerakki, bevosita uyushmagan yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi haqida so‘z yuritishdan oldin, avvalambor, uyushmagan yoshlarning o‘zini, ularning ongi, xulq-atvori, ijtimoiylashuv darajasi, shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev uyushmagan yoshlar xususida bildirgan fikrlarida ishlamaslik, o‘qimaslik, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmaslik, salbiy ta’sirlarga beriluvchanlik xususiyatlari ularga xosligiga alohida urg‘u bergan bo‘lishiga qaramasdan, «uyushmagan yoshlar» tushunchasiga nisbatan aniq ta’rif ishlab chiqilmagani va mazkur toifa yoshlar bilan ishlashga doir aniq chora-tadbirlarning belgilanmagani ushbu yo‘nalishdagi ishlarni samarali tashkil etishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Qolaversa, uyushmagan yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi sub’ektlar faoliyatining tahlili uyushmagan yoshlarning hisobini yuritishda aniqlik yetishmayotganini, ushbu toifaga kimlar kirishi hamda ular bilan qanday ishlar tashkil etilishi haqida aniq konsepsiya mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid yagona davlat siyosatini samarali ta’minlash, amaliyotda yoshlar jinoyatchiligining hisobini yuritish va natijalaridan foydalanish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish, yoshlar, ayniqsa, ularning uyushmagan toifalari o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish maqsadida, vakolatli davlat organlari (O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi, IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi) tomonidan yuritilayotgan yoshlar jinoyatchiligiga doir statistik va hisobot hujjatlarida ular yoshining aniq chegarasi, toifalari va boshqa mezonlar yuzasidan yondashuvni birxillashtirish, yagona tizimga solish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, uyushmagan yoshlar mamlakatimiz yoshlarining muayyan salmog‘ini tashkil etuvchi, o‘zining huquqbuzarliklarni sodir etishga moyilligi, turli yot va zararli g‘oyalarga beriluvchanligi bilan ijtimoiy himoya va jamoatchilik nazoratiga muhtoj toifasi bo‘lib, ular bilan doimiy va tizimli ravishda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash, bu borada keng jamoatchilikning hamkorligiga tayanish, qolaversa, sohaga doir qonunchilikni zamon talablariga muvofiq tarzda takomillashtirish asosida bu toifa yoshlarning sonini kamaytirish, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga erishish mumkin.

Uyushmagan yoshlar ijtimoiy faolligi va bandligini ta’minlashda quyidagi islohotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi [4]:

Birinchidan, uyushmagan yoshlarning bilimi, ma’naviyati, intellektual salohiyati, odob-axloqi, zukkoligi, harakatchanligi, o‘zgarishlarga tayyorligi va ularni qabul qilish fazilatlari jamiyatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilaydi.

Ikkinchidan, jamiyatning, iqtisodiy takomili, ijtimoiy adolat mezonlari, ilmiytexnikaviy taraqqiyot darajasi, axborotlashtirish, barqarorlik omillari, jamiyat a’zolari orasida fuqarolik kelishuvining mavjudligi uyushmagan yoshlar qatlamini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, uyushmagan yoshlar ongida hukm surgan kayfiyat va orzular bevosita jamiyatning istiqboldagi taraqqiyot omillarini belgilashda alohida o‘rinni egallaydi. Chunki ayni shu qatlamning kayfiyati jamiyatdagi ko‘pgina ziddiyatli holatlar va noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

To‘rtinchidan, uyushmagan yoshlar hayotida uchrab turadigan muammolarni hal etishda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: axloqiy poklik asosida umr kechirish, davlat qonunlariga so‘zsiz itoat etish; jamiyatdagi insonlar munosabatini adolat mezonlari asosida qurish; jamiyat a’zolari huquq va erkinliklarini tan olish, bunyodkorlikni hayotiy mezonga aylantirish va boshqalar shular jumlasidandir.

Uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko‘rsatishda, ijtimoiy qo‘llabquvvatlashda uning psixologik qiyofasini aniqlash muhim o‘ringa ega. Dastlab psixologik qiyofa nima ekanligini aniqlashtirib olsak. Psixologik qiyofa – bu shaxs psixologik tavsifining majmui bo‘lib, uning muayyan vaziyatlarda ichki imkoniyatlarini safarbar etishi xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi [2]. Psixologik qiyofani shakllantirishga oid bilimlarimiz bizga kasb tanlashda, insonlarning emotsional holatini tahlil qilishda, yolg‘on bilan rostni farqlashda yordam beradi. Shaxs psixologik qiyofasini yaratishning bir qacha mezonlari mavjud. Eng keng tarqalgan va samarali mezonlar quyidagilardir:

1) shaxs individual psixologik xususiyatlari (xarakter, temperament, qobiliyat, motivasiya);

2) hissiy-irodaviy holatlar (emosiyalar, irodaviy sifatlar, o‘zini-o‘zi nazorat qilish darajasi);

3) intellekt darajasi;

4) shaxslararo munosabatlarga kirishish darajasi;

5) o‘z-o‘ziga baho;

6) guruhga ta’sir etish qobiliyati.

Aynan mana shu mezonlar asosida shaxsning psixologik qiyofasi yaratilsa, unda zamonaviy shaxsning psixologik qiyofasi qanday bo‘lishi kerak. Bu savolga ham aynan mana shu mezonlar doirasida qator pedagog-psixologlarimiz o‘z muqobil variatlarini taqdim etgan ekanlar.

Yoshlar, shu jumladan ushmagan yoshlarning psixologik qiyofasini tahlil qilar ekanmiz bevosita shaxs strukturasiga murojaat qilishimiz kerak. Jumladan, V.N.Voroninning fikricha, psixologik qiyofa kognitiv, ijtimoiy va motivasion xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Uyushmagan yoshlarning kognitiv sohasini rivojlanishi virtual muloqot va ijtimoiy tarmoqlarga tobelikning ta’sirida o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, muloqot ko‘nikmasining pasayishiga, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni kamayishiga olib kelib, shaxsning jamiyatga moslashishini qiyinlashtirmoqda. Natijada yoshlarda ilmiy innovatsion tafakkurning o‘rniga rigid-stereotipik fikrlashning yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Mazkur holat esa uyushmagan yoshlarda kasb tanlash, jamiyatga moslashishni qiyinlashishiga olib kelmoqda.

Uyushmagan yoshlarning psixologik portretida affektiv soha ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, ularda o‘ziga va hayotga ishonchsizlik, axborot muhitining ta’sirida hissiy noturg‘unlik, emotsional intellektning sustligi, kayfiyatning sustligi, depressiv kayfiyat bilan ajralib turadi. Uyushmagan yoshlarning hissiy sohasidagi noturg‘unlik, ularning xulq-atvorida ham, atrof muhitga, o‘ziga nisbatan emotsional munosabatida ham o‘z aksini topadi.

Uyushmagan yoshlarning motivasion sohasida birinchi navbatda moddiylikning ustunligi ajralib turadi. Ular ehtiyojlarda “o‘zligini anglash, ularni realizatsiyalash, o‘zini rivojlantirish” ehtiyoji passiv shaklda namoyon bo‘ladi. Natijada kasbiy, ijtimoiy faollikning pasayishi kuzatiladi. Uyushmagan yoshlarning qadriyatlar tizimida oila, kasbiy shakllanish, konstruktiv shaxslararo munosabatlar refleksiya qadriyat sifatida o‘zini ahamiyatini yo‘qota boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M.Mirziyoyev. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

2. Ganiyev F. T. O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy preventiv mexanizmi//Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 84-90.

3.Ganiyev F., Ganiyeva G. O‘g‘irlik haqida tushuncha, o‘g‘irlikning psixologik genezisi va mehanizmlari //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – T. 3.– №. 4. – C. 43-47.

4. Ganiyev F., O‘zoqboyev S. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish //Евразийский журнал технологий и инноватсий. – 2023. – T. 1. – №. 12 Part 2. – C. 131-134.

5. G’aniyev F. T. O‘g‘irlik jinoyatinning jinoyat-huquqiy jihatlari va oldini olishga doir fikir-mulohazalar //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. –2023. – T. 3. – №. 4. – C. 37-42.